


XORAZM VILOYATIDA TURIZM



So'nggi yillarda mamlakat milliy iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri sifatida turizmni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda, bu esa uning tez rivojlanishi, yangi ish o'rinlarini yaratish, daromadlarni oshirish, aholi turmush darajasi va sifatini yuksaltirish, shuningdek, investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan.



Turistik faoliyatni amalga oshirgan tashkilotlar soni (2016 - 2020 yillar)



2020- yilda faoliyat yuritgan turistik firmalar soni 6 tani tashkil qilgan, bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan 5 taga kamaygan. Ular tomonidan xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni 2019- yilda 448,4 ming nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2020- yilda 77,8 ming nafarga yetgan.

2020- yilda xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni

| | Xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar, kishi | Bir kunlik tashrif buyuruvchilar (ekskursantlar) | Tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar (sayyohlar) | Kishi-kun (tunab qoluvchi tashrif buyuruvchilar uchun) |
|---|--|--|--|--|
| Jami | 77 198 | 70 617 | 6 581 | 11 636 |
| Qabul qilindi | 77 178 | 70 617 | 6 561 | 11 596 |
| shu jumladan: | | | | |
| xorijiy tashrif buyuruvchilar | 5 231 | 5 078 | 153 | 305 |
| ulardan MDH mamlakatlaridan | 3 033 | 3 022 | 11 | 19 |
| O'zbekiston Respublikasi fuqarolari | 71 947 | 65 539 | 6 408 | 11 291 |
| Jo'natildi | 20 | - | 20 | 40 |
| shu jumladan: | | | | |
| ulardan MDH mamlakatlariga | - | - | - | - |
| O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha | 20 | - | 20 | 40 |


2020- yilda sotilgan sayyohlik yo‘llanmalarining soni va qiymati

| | Soni, birlik | Qiymati, mln. so‘m |
|--|--------------|--------------------|
| Sotilgan sayyohlik yo‘llanmalari - jami | 8 249 | 6 304,2 |
| Ulardan bevosita aholiga | 8 249 | 6 304,2 |
| shu jumladan: | | |
| O‘zbekiston hududi bo‘yicha O‘zbekiston fuqarolariga | 6 577 | 6 117,0 |
| chet mamlakatlari bo‘yicha O‘zbekiston fuqarolariga | 11 | 29, 8 |
| O‘zbekiston hududi bo‘yicha MDH fuqarolariga | 1 661 | 157,4 |

2020- yilda turistik firmalar orqali 8 249 dona, qiymati 6 304,2 mln. so‘mlik sayyohlik yo‘llanmalar sotilgan. Yo‘llanmalarning 6 577 tasi (79,7%) O‘zbekiston hududi bo‘yicha O‘zbekiston fuqarolariga, 11 tasi (0,1%) chet mamlakatlari bo‘yicha O‘zbekiston fuqarolariga va 1 661 tasi (20,2%) O‘zbekiston hududi bo‘yicha MDH fuqarolariga sotilgan.




2020- yilda jamoaviy joylashtirish vositalari soni, birlik



Jamoaviy joylashtirish vositalariga quyidagilar kiradi: mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari – 82 ta (ulardagi ob'ektlarni qo'shgan holda), ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari – 18 ta, individual joylashtirish vositalari – 33 ta va boshqa joylashtirish vositalari – 6 ta.

Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari, birlik




Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalariga quyidagilar kiradi: mehmonxonalar va qisqa muddat yashash uchun mo'ljallangan boshqa joylar. 2020- yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida xonalar soni 1 824 tani, ularda joylar soni 3 527 tani tashkil etgan. Joylashtirilgan shahslar soni 22 269 kishini, shundan 89,3 % O'zbekiston fuqarolari, 4,2 % MDH mamlakatlari fuqarolari, qolgan 6,5 % xorijiy davlatlarning fuqarolardir. Jami tunab qolishlar soni 55 038 kuni tashkil etgan.

Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari, birlik

| | joylashtirish vositalari soni, | Nomerlar (xonalar) | joylar soni | Joylashtirilgan shaxslar soni, jami |
|--|--------------------------------|--------------------|-------------|-------------------------------------|
| Katta yoshlilar uchun sanatoriya | 2 | 67 | 137 | 915 |
| Bolalar uchun sanatoriya | 2 | 19 | 390 | 1 008 |
| Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi sog'lomlashtirish sanatoriya oromgohi | 1 | 4 | 80 | - |
| Sanatoriya profilaktoriya | 1 | 25 | 50 | 602 |
| Boshqa ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari | 12 | 258 | 1 986 | 508 |


Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalariga quyidagilar kiradi: katta yoshlilar uchun sanatoriya– 2 ta, bolalar uchun sanatoriya– 2 ta, Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi sog'lomlashtirish sanatoriya oromgohi– 1 ta, sanatoriya-profilaktoriya – 1 ta, boshqa ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari– 12 ta . Xonalar soni 373 tani, ularda joylar soni 2 643 tani, joylashtirilgan shaxslar soni 3 033 kishini tashkil etdi. Jami tunab qolishlar soni 82 889 kuni tashkil etgan.

Individual joylashtirish vositalari, birlik



Individual joylashtirish vositalariga quyidagilar kiradi: mehmon uylari – 33 ta. Ularda xonalar soni 131 tani, o‘rinlar soni esa 297 tani tashkil etdi. Joylashtirilgan shaxslar soni 404 kishini tashkil etgan. Jami tunab qolishlar soni 1 038 kunni tashkil etgan.

Mehmonxonalar toifasi (yulduzi), % da




Mehmonxonalar toifa bo'yicha 1 – yulduzli, 2 – yulduzli, 3 – yulduzli, 4 – yulduzli, 5 – yulduzli va toifasizlarga bo'linadi. Xorazm viloyatida toifasiz mehmonxonalar – 82,9 % ni, 1 – yulduzli 4,9 %, 2 - yulduzli 1,2 % va 3– yulduzli 9,8% ni va 4 – yulduzli mehmonxonalar esa 1,2 % ni tashkil etgan.

2020- yilda safar maqsadlari bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi

| | Jami | ta'til, bo'sh vaqt va dam olish | do'stlar va qarindoshlardan xabar olish | ta'lim va kasbiy tayyorgarlik | ziyosat | do'konlarga tashriflar | tranzit | boshqa maqsadlar | ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar |
|--------------------------------|--------|---------------------------------|---|-------------------------------|---------|------------------------|---------|------------------|---------------------------------------|
| Joylashtirilgan shaxslar, jami | 22 269 | 5 467 | 1 065 | 246 | 3 456 | 85 | 29 | 68 | 11 853 |

Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida 22 269 kishi joylashtirilgan. Ulardan ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar bo'yicha joylashtirilganlar – 53,2 %, ta'til va dam olish maqsadida – 24,5 %, ziyorat qilish – 15,6 %, do'stlar va qarindoshlardan xabar olish – 4,8 %, ta'lim va kasbiy tayyorgarlik – 1,1 %, do'konlarga tashriflar va tranzit -0,5 %, boshqa shaxsiy maqsadlar – 0,3 % ni tashkil etgan.

2020- yilda turish muddati bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi




Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning turish muddatlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rinadiki, 1 - 3 kun tunash 90,3 %ni tashkil etgan, 4 - 7 kun tunash esa 7,6 %ni, 8 - 28 kun tunash 2,0 % ni, 29 - 91 kun tunash 0,1 %ni tashkil etgan.

2020- yilda safar maqsadlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi

| | Jami | Ta'til, bo'sh vaqt va dam olish | Davoluvchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar |
|--------------------------------|-------|---------------------------------|--|
| Joylashtirilgan shaxslar, jami | 3 033 | 508 | 2 525 |
| shu jumladan fuqarolar: | | | |
| O'zbekistondan | 3 033 | 508 | 2 525 |

2020- yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida 3 033 nafar kishi joylashtirilgan, ulardan davoluvchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalarni olish maqsadi bo'yicha – 83,3 %ni, ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadi bo'yicha – 16,7 %ni tashkil etgan.

2020- yilda turish muddati bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi




Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning turish muddatlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rinadiki, 1 - 3 kun tunash 0,2 % ni tashkil etgan, 4 - 7 kun tunash 13,5 %ni, 8 - 28 kun tunash 55,8 % ni, 29 - 91 kun tunash 30,0 % ni, 92 - 182 kun tunash esa 0,5 % ni tashkil etgan.

2020- yilda safar maqsadlari bo'yicha individual joylashtirish muassasalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi

| | Jami | Jami Ta'til, bo'sh vaqt va dam olish | Do'stlar va qarindoshlardan xabar olish | ta'lim va kasbiy tayyorlik | ziyorat | tranzit | ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar |
|--------------------------------|------|--------------------------------------|---|----------------------------|---------|---------|---------------------------------------|
| Joylashtirilgan shaxslar, jami | 404 | 203 | 2 | 2 | 43 | 2 | 152 |
| shu jumladan fuqarolar: | | | | | | | |
| O'zbekistondan | 352 | 201 | 2 | 2 | 25 | 2 | 120 |
| MDH mamlakatlaridan | 25 | 2 | | | 6 | | 17 |
| Xorijiy davlatlardan | 27 | | | | 12 | | 15 |

Individual joylashtirish vositalarida 4 528 nafar kishi joylashtirilgan, ulardan ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadi bo'yicha – 82,1 %, ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlar bo'yicha – 17,7 %, do'stlar va qarindoshlardan xabar olish – 0,2 %.

2020- yilda turish muddati bo'yicha individual joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, kishi



Jami joylashtirilgan shaxslar sonidan joylashtirilgan shaxslarning 94,3 % kishi 1 - 3 kun tunagan, 3,2 % kishi 4 - 7 kun tunagan, 2,5 % kishi 8 - 28 kun tunagan.

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Tel.: (62) 224-65-21